O’zbek olimlaridan A.A. Isadjanov “yashil” iqtisodiyot – bu ertangi kun iqtisodiyoti va aynan u XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo’lib, “yashil” iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uchta aksiomaga asoslanadi, deb tadqiqotlarida ilgari surib kelmoqda. Jumladan, cheklangan makonda ta’sir sohasini uzluksiz kengaytirib bo’lmaydi, resurslar cheklangan sharoitda uzluksiz oshib borayotgan ehtiyojni qondirishni talab qilish mumkin emas va “Yer yuzida hamma narsa bir-biri bilan bog’liq” [2], degan qarashlarni ilmiy asoslashga harakat qilmoqdalar.

Shular qatorida T.K.Iminov, A.V.Vahobov, T.Z.Teshaboyev, N.H.Hakimovning tadqiqotlarida “yashil” iqtisodiyotga o’tishning mahalliy imkoniyatlari, xorijiy tajribalari, sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy ekologik muammolar kabi masalalari izchil o’rganib kelinmoqda^[3].

Xususan, taniqli olim N.Hakimov inson ekologiyasi bilan “yashil” iqtisodiyotni uzviy jarayon, deb o’z qarashlarida qiyosiy tahlil qilishi, bu borada yangicha yondashuvlar kirib kelayotganini ko’rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Yashil” iqtisodiyotni yangi fan sifatida tadqiq etarkanmiz, o’rganishda ilmiy asoslangan tizimli tahlil, statistik baholash, qiyosiy taqqoslash, sinergetik tahlil, fanlararo yondoshuv usullaridan keng foydalanildi. Xususan, mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilishda tizimli tahlil metodidan, xorijiy davlatlarda barqaror rivojlanishda “yashil” iqtisodiyotdan qanday yo’llarda foydalanishayotgani, unga qan yo’sinda o’tayotgani qiyosiy tahlil orqali ifodalab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Yashil” iqtisodiyotni o’rganayotgan maktablar orasida “yashil” o’sish – atamasi ostida tadqiq qilayotganlar ham mavjud bo’lib, ular bu ekologik barqaror iqtisodiy o’sishning faraziy yo’lini tavsiflovchi atamadir, deb ta’kidlaydilar. U iqtisodiy o’sish ustuvor maqsad bo’lib qolaverar ekan, iqtisodiy o’sishni resurslardan foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirlardan ajratish zarurligini tushunishga asoslanadi.

“Yashil” o’sish “yashil” iqtisodiyot va past uglerodli yoki Barqaror rivojlanish tushunchalari bilan chambarchas bog’liq. “Yashil” rivojlanishning asosiy omili barqaror energiya tizimlariga o’tishdir. “Yashil” o’sish siyosati tarafdorlarining ta’kidlashicha, yaxshi amalga oshirilgan “yashil” siyosat qayta tiklanadigan energiya, “yashil” iqishloq xo’jaligi yoki barqaror o’rmon xo’jaligi kabi sohalarda bandlik uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Demak, “yashil” iqtisodiyot deganda, bizning fikrimizcha inson va Yer yuzidagi barcha tirik mavjudodlar hayoti va kelajagi uchun zarur bo’lgan tabiat resurslarini, atrof-muhit va ekologiyani bir butun yaxlit holda

1 Green Economics: An Introduction to Theory, Policy and Practice. Molly Scott Cato. Earthscan, 2009 -224. The world as we know it needs a new economics. Climate change, financial crisis and out-of-control globalization - all the major problems facing the world have their root in the dominant economic system. The globalised marketplace is the prevailing force in our lives, undermining the real importance of our human communities and our planet. Green Economics argues that society should be embedded within the ecosystem, and that markets and economies are social structures that should respond to social and environmental priorities.



nafaqat saqlab qolish, balki uni yanada yashillashtirib, boyitib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni yangicha yo'nalishda tizimli tashkil etish tushiniladi.

Buning uchun quyidagi bir qator chora tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi;

1. Aholining talab va ehtiyojlarini uzliksiz ravishda tobora to'laroq qondirib borishni ta'minlash orqali, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishni, xizmatlar ko'rsatishni barqaror ravishda tabiat, ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko'paytirib borish;

2. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo'ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan bino inshootlarni barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish;

3. Atrof-muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, tabiatni, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnika va texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirishga erishish;

4. Tabiat resurslarining cheklanganligi sharoitida inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqiligini ta'minlash maqsadida ne'matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslardan samarali tejab-tergab foydalanish yo'li bilan ularni kamayib ketishiga yo'l qo'ymasdan o'rnini tiklab borishni ta'minlagan holda amalga oshirish choralarini ishlab chiqish;

5. Aholining doimiy, o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo'ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda chiqindilarsiz ishlash texnologiyalaridan foydalanishga asosiy ahamiyat berish kabilardir;

"Yashil" iqtisodiyot past uglerodli, resurslardan tejankor va ijtimoiy maqsad va mafaatlarga mos keladigan iqtisodiyot sifatida tavsiflanadi.

"Yashil" iqtisodiyotda ish bilan bandlik va daromadning o'sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, shuningdek, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo'qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi. "Yashil" iqtisodiyot bo'yicha har bir davlatda quyidagi uch asosiy yo'nalishda ish olib borilishi zarurdir:

1) Mintaqaviy, submintaqaviy va milliy forumlar, maslahatlashuvlar orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun makroiqtisodiy yondashuvni targ'ib qilish hamda tizimli ravishda hamkorlikni yo'lga qo'yish.

"Yashil" iqtisodiyotni rag'batlantirish bo'yicha ko'p tomonlama mintaqaviy va submintaqaviy hamkorlik iste'mol va ishlab chiqarishda barqaror o'zgarishlarni tezlashtirish va mustahkamlash uchun qo'llab-quvvatlanadi. Shu munosabat bilan turli hukumatlar va notijorat tashkilotlar bilan bir qatorda, BMTning Atrof-muhit bo'yicha agentligi resurslar samaradorligi va "yashil" iqtisodiyotni rag'batlantirishda juda muhim ishtirokchi bo'lgan xususiy sektor bilan ham hamkorlikni kuchaytirib bormoqda.

Bular:

- ▶ Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bilan integratsiyalashuv;
- ▶ Mintaqaviy tashabbuslarni kengaytirish;
- ▶ "Bir kamar – bir yo'l", "Yashil makon" tashabbusi xalqaro "yashil" taraqqiyot koalitsiyasini faollashtirish;
- ▶ Falokatlar va mojarolarga chidamlilikni rivojlantirish;
- ▶ Xitoy-Afrika atrof-muhit bo'yicha hamkorlik markazi bilan integratsiyalashuv;
- ▶ Mamlakatlarga iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda yordam berish;
- ▶ Tabiat qadriyatini iqtisodiyotimizga integratsiya qilish;
- ▶ Barqaror rivojlanish maqsadlari uchun qashshoqlik-atrof-muhit harakatini qo'llab-quvvatlash;
- ▶ Gender tengligini ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- ▶ Kimyoviy moddalar va chiqindilarni oqilona boshqarishni targ'ib qilish;
- ▶ Aqlli siyosatlarni yuritish uchun fanni ta'minlash;
- ▶ Toza havoni tiklash;
- ▶ Yaxshi boshqaruvni qo'llab-quvvatlash;
- ▶ Resurs samaradorligini qo'llab-quvvatlash;
- ▶ Osiyo va Tinch Okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasini qo'llab-quvvatlash;
- ▶ Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi kam uglerodli turmush tarzi muammosi oqilona yechish;
- ▶ Istiqbolli loyihalarni joriy qilish.

2) "Yashil" moliya, texnologiya va investitsiyalardan foydalanishda asosiy e'tiborni "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonlariga qaratilayotganligini namoyish qilish:

Bu ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirishga va atrof-muhitga zarar keltirmasdan barqaror rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyotdir. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin ko'proq siyosiy jihatdan qo'llaniladigan yo'nalishga ega.

Uni oldingi iqtisodiy rejimlardan ajratib turadigan xususiyat – bu tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni iqtisodiy ahamiyatga ega sifatida bevosita baholash (qarang: «Ekotizimlar va bioxilma-xillik iqtisodiyoti» va «Tabiiy



kapitallar banki») va xarajatlar ekotizimlar orqali jamiyatga tashqariga chiqariladigan to'liq xarajatlarni hisobga olish rejimi aktivga zarar yetkazuvchi yoki e'tiborsiz qoldiruvchi tashkilotning majburiyatlari sifatida ishonchli tarzda kuzatilishini ham hisobga olinadi.

“Yashil” stiker va ekologik belgi amaliyoti iste'molchilar oldida atrof-muhitga oqilona munosabat va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida paydo bo'ldi. Ko'pgina sohalarda globallashtirilgan iqtisodiyotda yashillashtirish amaliyotini targ'ib qilish usuli sifatida ushbu standartlarni qabul qila boshladi. Barqarorlik standartlari sifatida ham tanilgan ushbu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaradigan odamlarga zarar bermasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalardir. Ushbu standartlar yaqinda vaqtlarda paydo bo'lib tez o'sib bordi va hozirda ular yangi, “yashil” iqtisodiyotni qurishda yordam berishi mumkin. Ular o'rmon xo'jaligi, dehqonchilik, tog'-kon sanoati yoki baliqchilik kabi iqtisodiy sohalarga e'tibor qaratadi; suv manbalari va biologik xilma-xillikni muhofaza qilish yoki issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish kabi ekologik omillarga e'tiborni qaratish; xodimlarning ijtimoiy himoyasi va huquqlarini qo'llab-quvvatlash; ishlab chiqarish jarayonlarining muayyan qismlariga uyg'unligini ta'minlash.

3) “Yashil” iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va asosiy oqimga kiritish nuqtayi nazaridan mamlakatlarni qo'llab-quvvatlash. Misalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Barqaror rivojlanish maqsadlari ko'ra Mo'g'ulistonning “Yashil” rivojlanish milliy siyosatini amalga oshirishda mahalliy darajadagi rivojlanish rejalariga integratsiyalashuvida va asosiy tarmoqlarni yashillashtirishda qo'llab-quvvatlamogda. Bugungi kunda “yashil” iqtisodiyotga o'tish rivojlangan davlatlar uchun kuchlar muvozanatini aks ettiruvchi nisbatda barqaror bo'lib bormogda. Xususan, “yashil” kompaniyalarga xususiy investitsiyalarni kiritish uchun Ethical Markets Media va The Climate Prosperity Alliance tomonidan ochilgan Global iqlim farovonligi reytingi 2007-yildan buyon quyosh, shamol, geotermal, okean-gidro va boshqa “yashil” sektorlarga 1,248 trillion dollardan ortiq sarmoya kiritilganini misol ketilirishimiz mumkin. Bu raqam Shimoliy Amerika, Xitoy, Hindiston va Braziliya hamda boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsiyalarni ifodalaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi bir qancha davlatlar va xalqaro tashkilotlar va boshqalar ham “yashil” o'sish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqqanlar; masalan, Global “yashil” o'sish instituti (GYAO'I) bu masalaga alohida maxsus bag'ishlangan ishlarida “yashil” o'sish atamasi milliy yoki xalqaro strategiyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan, masalan, COVID-19 retsessiyasidan iqtisodiy tiklanishning bir qismi sifatida, ko'pincha “yashil” tiklanish sifatida ifodalaydilar.

“Yashil” o'sish tanqidchilari “yashil” o'sish yondashuvlari iqlim inqirozi, biologik xilma-xillik inqirozi va boshqa atrof-muhit degradatsiyasini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan asosiy iqtisodiy tizimlar o'zgarishini to'liq hisobga olmasligini ta'kidlaydi. Tanqidchilar buning o'rniga iqtisodiy o'zgarishlar uchun muqobil asoslarga ishora qiladilar, masalan, aylanma iqtisodiyot, o'sish, donut iqtisodiyoti yoki sayyora chegaralarini yaxshiroq hisoblaydigan va shunga o'xshash fundamental o'zgarishlarga olib keladigan iqtisodiyot, deb qaraydilar...

Ishlab chiqarish va iqtisodiy taraqqiyotni o'lchash iqtisodiy indeks ko'rsatkichlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. “Yashil” indekslar iqtisodiy taraqqiyotga erishishda insonning ekologik ta'sirini, transport, energetika, binolar va turizm kabi samaradorlik tarmoqlarini, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya va toza texnologiyalar innovatsiyasi kabi sohalarga yo'naltirilgan investitsion oqimlarni o'lchash zaruratidan kelib chiqqan.

“Yashil” iqtisodiyotning rivojlanishi ekologik barqarorlikning muhim omiliga nega aylanib qoldi? Ushbu masalani tushuntirish uchun avvalo, xalqaro hamjamiyatning atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari haqida to'xtalib o'tishimizga to'g'ri keladi. Zero, ona yerimiz, ya'ni umumiy uyimiz tobora og'ir ahvolga tushib bormogda. Uni birgalikda asrash har bir insonni, har bir mamlakatning muqaddas burchidir! Vaholangki, insoniyat hayotining asosi bo'lgan, havodagi kislorodni ishlab chiqarib beradigan, tirik mavjudodlarning o'pkasi degan nom olgan, o'rmonlar hamda ular uchun asosiy oзуqani yetishtirib beruvchi yer resurslarining sayyoramiz hududlari bo'yicha joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

Malumotlardan ko'rinib turibdiki bu iqtisodiyotning rivojlanishi uchun o'ta zarur bo'lgan, aslida cheklangan o'rmon va yer resurslar ham dunyo turli mamlakatlari bo'yicha notekis joylashganligi sababli ayrim davlatlar jalqlari uchun muhim hayotiy masalaga aylanib qolgan(1-jadval).

Yaxshiyamki, insoniyat XXI asrga kelib g'oyat murakkab muammolar qarshisida turganligini tushunib yetdi. Jahon miqyosida yuz bergan va berayotgan jarayonlar tahlili shuni ko'rsatdiki, iqlim o'zgarishi, ozon qatlaminin yemirilishi, cho'llanish va yerning degradatsiyasi, bioxilma-xilliklarning qisqarishi, ichimlik suvining ifloslanishi va yetishmasligi, o'rmon va tuproq inqirozi insoniyat uchun nihoyatda dolzarb global ekologik muammolardan biri bo'lib qoldi.

Bugungi kunda “yashil” iqtisodiyot butun dunyo mamlakatlarinin istiqbolda barqaror rivojlanishning asosiy drayveri sifatida qaralmoqda va uni harakatga keltiruvchi kuch “yashil” texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalar ekanligini tan olinmoqda va unga jiddiy e'tibor berilmoqda. Mazkur texnologiyalar energiya va resurslarni tejash, uglerod chiqindilarini kamaytirish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, organik qishloq xo'jaligi



mahsulotlarini yetishtirish, chiqindilarni qayta ishlash, umuman iqtisodiyotni tabiat va atrof-muhitga zarar keltirmasdan rivojlantirishga hamda insoniyatning ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

1-jadval: Dunyo mamlakatlaridagi o'rmon resurslari va ekilib ozuqular yetishtiriladigan yerlar (aholi jon boshiga)

№	Mamlakatlar nomi	O'rmon	Mamlakatlar	Ekiladigan
1	Gabon	36,0	Avstraliya	2,5
2	Kanada	15,8	Qozog'iston	1,9
3	Rossiya	5,5	Kanada	1,5
4	Finlyandiya	5,0	Rossiya	0,9
5	Braziliya	2,5	Argentina	0,9
6	AQSh	0,9	AQSh	0,6
7	Xitoy	0,1	Hindiston	0,17
8	Hindiston	0,08	Germaniya	0,1
9	Germaniya	0,06	Xitoy	0,07

Ayniqsa, hozirgi globallashuv sharoitida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ahamiyati ortib bormoqda. Mazkur masalaning kulminatsion cho'qqisi 2015-yilda Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan BMT-ning iqlim isishiga bag'ishlangan konferensiyasida 195 mamlakat tomonidan global isish darajasini 2° selsiy darajasida ushlab turish siyosatini qabul qilishi bilan belgilandi. Ushbu konferensiyada 147 mamlakat o'zining "yashil" iqtisodiyot bo'yicha rejalarini muhokama qildi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha dasturlarni taklif qildi, 167 mamlakat iqlim imkoniyatlaridan kelib chiqib o'z energiya samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalarini ishlab chiqilgan va barcha davlatlarga taqdim etilgan edi. Prognozlar shuni ko'rsatmoqdaki, 2040-yilga kelib dunyo yalpi ichki mahsulotining energiya sig'imkorligi 0,93 kVt/dollarga, jon boshiga to'g'ri keluvchi energiya iste'moli 22,32 mVt/kishiga, jami energiya iste'moli 204408,88 mln. mVt ga yetadi².

Mamlakatlarning an'anaviy energiya manbalaridan foydalanishni kamaytirib, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga ko'proq e'tibor qarashlariga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

- qayta tiklanadigan energiya manbalaridan texnologik jarayonda foydalanish hisobiga narx raqobatining o'sishi;
- mazkur sektor rivojlanishi uchun ijobiy siyosiy tashabbuslar;
- moliyalashtirishdagi nisbatan erkin sharoitlar; – energetik va ekologik muammolarni hal qilish masalasi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning o'sib borayotgan iqtisodiyotining energiyaga ortib borayotgan talabi; – energiyani barchaga birdek mavjudligini ta'minlash va energetik qashshoqlikdan qutulish.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va iqtisodiyotning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan energiya resurslari zaxiralarga bog'liq. Hozirgacha dunyoda aniqlangan tabiiy energiya manbalari zaxiralari energiya iste'molining bugungi kun darajasida iste'mol qilinsa, 54 yil davomida energiyaga bo'lgan ehtiyojimizni qondirish imkonini beradi, xolos. Biroq ma'lumki, jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishi bir joyda to'xtab turmaydi. Rivojlanish va iqtisodiy o'sish energiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib keladi va energiya tanqisligi muammosi vujudga kelishi havfini tug'diradi. 2040-yilga kelib jahon YAIM energiya sig'imkorligi 0,08 t. n.e./ming dollarga yetishi kutilmoqda. Shu bois an'anaviy energiya manbalari zaxiralarning kamayib borishi sharoitida qayta tiklanadigan energiya manbalarining inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyati va dolzarbligi ortib bormoqda.

Yildan yilga ayrim mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotga investitsiya kiritish darajasi pasayganiga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarida qayta tiklanadigan energiya manbalarini investitsiyalashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat maqsadli dasturlari ishlab chiqilmoqda, bunday mamlakatlar qatoriga Hindiston, Argentina, Misr va BAA Qozog'iston va O'zbekistonni ham kiritish mumkin.

Ushbu mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotni investitsiyalash muhitini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan tadbirlar mazkur tarmoq rivojlanishiga xizmat qiluvchi investitsiyalar miqdorining ortishiga olib kelishi shubhasizdir. 2021-yilda barcha yillarda kuzatilganidek, jahonda "yashil" iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning katta ulushi quyosh va shamol energiyasiga to'g'ri keldi.

Rivojlangan mamlakatlarda quyosh energiyasiga investitsiyalar miqdori 57,4 milliard dollarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 58,6 milliard dollarga teng bo'ldi. Investitsiyalardagi bunday katta ulushni quyosh energetikasi samardorligining boshqalariga nisbatan yuqoriligi va boshqa tiklanadigan energiya manbalariga nisbatan ekspluatatsiya xarajatlarining kamligi bilan tushuntirish mumkin³.

2 CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2022 Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=4.63)Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230> 782 UZBEKISTAN | www.caajsr.uz

3 CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2022 Scientific



“Yashil” investitsiyalar tarkibiy ulushining keyingi o‘rnini shamol energiyasiga bo‘lgan investitsiyalar egallaydi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 59,4 milliard dollarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda 50,7 milliard dollarga teng bo‘ldi. Ahamiyatli jihati shundaki, jahonda quyosh energiyasidan foydalanishni investitsiyalash ulushining yuqori bo‘lishiga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda “yashil investitsiya”lar ko‘proq shamol energiyasiga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa quyosh energiyasiga yo‘naltirilgan. Buni ushbu mamlakatlar geografik va iqlimiy sharoitlari bilan bog‘liq omillar orqali tavsiflash mumkin. Biomassa, bioyoqilg‘i, kichik gidrostansiyalar, geotermal va dengiz energiyalari kabi boshqa tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalar ulushi jamiga nisbatan juda kam bo‘lib, 2021-yilda rivojlangan mamlakatlarda 8,2 milliard dollarga, rivojlanayotgan mamlakatlarda 7,31 milliard dollarga teng bo‘ldi xalos.

“yashil” iqtisodiyotga investitsiyalarni tahlil qilayotganda rivojlanayotgan mamlakatlar guruhini ikki tarkibiy qismga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq, ya‘ni “Katta uchlik” (Xitoy, Hindiston va Braziliya) va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblanadi hamda ularning tajribasini institutsional o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish orqali ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyot tushuniladi.

Insoniyat kelgusi o‘n yillikda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi kabi juda dolzarb muammolarga duch kelishni boshladi.

Ushbu tizimli global inqirozlarning barchasi o‘zaro bog‘liqligi ularni alohida-alohida hal etib bo‘lmazligi, shuningdek, an’anaviy iqtisodiy yondashuv ushbu muammolarning yechimiga qaratilgan ham ekologik, ham ijtimoiy maqsadlarning muvozanatini ta‘minlay olmaydi.

An’anaviy iqtisodiy yondashuv ortiqcha iste‘mol qo‘llab-quvvatlanishi, ijtimoiy qamrov sustlashishi hamda tabiiy resurslarning keskin kamayishiga olib kelsa, «yashil» iqtisodiy yondashuv bularning barchasini rad etib, ijtimoiy farovonlikni hamda ekologik barqarorlik muvozanatini ta‘minlash uchun xizmat qiladi.

Oxirgi o‘n yillikda deyarli, barcha mamlakatlarda tabiiy resurslardan foydalanishning hamda atrof-muhitga salbiy ta‘sirni oshirmasdan iqtisodiy farovonlikni ta‘minlashga qaratilgan shunday “yashil” iqtisodiyotga urg‘u berish tendensiyasi kuzatilmoqda.

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi ko‘pgina mamlakatlar uchun strategik ustuvor vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda. “Yashil” iqtisodiyot qayta tiklanuvchi energiya, “yashil” bino-inshootlar, barqaror transport, suv va yer resurslari hamda qattiq maishiy chiqindi boshqaruvi kabi sektorlardan iboratdir.

“Yashil” o‘sish indeksi bo‘yicha mamlakatimizning past ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan quyidagi ustuvor yo‘nalishlardagi ishlarni amalga oshirish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhimligi ushbu tadqiqotimiz asosida tavsiya qilinadi:

iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari muqobil energiya samaradorligini oshirish;

energiya resurslari iste‘molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;

iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;

“yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mazkur strategiya doirasida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasi o‘laroq, “yashil” o‘sish indeksidagi mamlakatning o‘rni sezilarli yaxshilanishi hamda global “yashil” ekotizimni asrab-avaylashda uning munosib hissa qo‘shishi ta‘minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.1. Green Economics: An Introduction to Theory, Policy and Practice. Molly Scott Cato. Earthscan, –2009-224.
2. Исаджанов, А. (2020). “Яшил иқтисодиёт”: хусусиятлари ва ривожланиш омиллари. –Iqtisodiyot Va ta‘lim, (1), 12-18. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss1/a14.
3. А.В.Вахабов, Ш.А.Тошматов, Т.К.Иминов, Т.З.Тешабоев, 2. Special Issue, Aug-2021. Academic Journal of Digital Economics and Stability Special Issue, Aug-2021. ISSN 2697-2212 Online: <https://academicjournal.io>.
4. Хакимов Н.Х. Инсон экологияси, монография-2021. Tavsif. Sharhlar. Ushbu monografiya ijtimoiy falsafaning muhim muammolaridan biri-inson ekologiyasining mazmuni, mohiyatiga bag‘ishlangan.
5. Хакимов Н.Х. Инсон экологияси, монография-2021. –Т.: “Иқтисодиёт”, 2020. –236 бет.

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.